

WORD USAGE SKILL OF IBRAHIM GAFUROV

**Qurbonova Oltinoy Bekmurotovna,
doctorant of the faculty of filology,
Bukhara state university**

Annotation. In the article Ibrahim Gafurov's skill of criticism is highlighted. Especially, vocabulary skills are focused. Artistic of critic's language is explained by examples.

Key words. critic, tradition, novelty, skill, literary criticism, style, poetics.

Ibrohim G'afurov asarlarini o'qir ekanmiz, so'zning poetik va lingvistik imkoniyatlaridan hayratga tushamiz. Oddiy, avvaldan tanish bo'lgan xalqona so'zlar ham uning ilmiy, publitsistik maqolalarida ishlatilib noziklashganday, ma'nan kengayib kattalashib ketganday tuyiladi. Bunday so'zlar ilmiy jummalarga joylashtiriladi va singdiriladi.

Munaqqidlar yaratgan asarlarni lingvopoetik jihatdan ham tahlil etish adabiyotshunoslik fani uchun foydalidir. Ibrohim G'afurov asarlari tilining o'ziga xosligi shundaki, badiiy tafakkurning boy va murakkab tarixidan foydalanib, hozirda badiiy asarlardagina ishlatiladigan yoki mumtoz adabiyotimiz xazinasidagina saqlanib qolgan so'zlarni ham, munaqqidning maqsadini ochib beruvchi faqat xalq tilida ishlatiladigan so'zlarni ham qo'llaydi. Bunday noodatiy so'zlarni muallif hozirgi adabiy tilda tuzilayotgan jumlasiga joylash uchun "majbur qilmaydi". Aksincha, bu so'zlar munaqqidning maqsadiga munosib, loyiq.

Tanqidchi ba'zi o'rinlarda hatto tilimizda yangi so'z kashf etadi. Masalan, "Yam-

yashil daraxt” kitobiga kiritilgan “Nuqtayi nazar” maqolasida nuqtayi nazarga sinonim sifatida ko’z qarash birikmasini qo’llaydi.”Bu ham ko’z qarash, bir nuqtayi nazar” (2,41). Bu o’rinda nuqtayi nazar kuzatish doirasi ma’nosida qo’llangan va munaqqidning yangi topilmasi desak xato qilmaymiz.

Ibrohim G’afurov “Mangu latofat” kitobiga kiritilgan O’zbekiston qahramoni Erkin Vohidovga bag’ishlangan badiyasini “Fazl. Fasohat. Zakovat” deya nomlagan. Maqolada olim fazl, fasohat, zarofat, fayzu shukuh, fazlu fasohat, fasih, jununiy so’zlarini shoir ijodiga nisbatan o’ziga xos baho sifatida qo’llaydi. Bu so’zlar orqali hassos shoir she’rlarining o’ziga xos badiiyati va mantig’i bilan boshqa shoirlar she’riyatidan ajralib turishini ko’rsatadi.

Fazl, fasohat, fasih, fazlshunoslik, zakovat, zarofat kabi so’zlarni olimning ko’plab asarlarida uchratamiz. Bu esa so’zlarning munaqqid tomonidan faqat asarga publitsistik ko’tarinki ruh bag’ishlash uchun ishlatilmayotganligini ko’rsatadi. Munaqqid bu so’zlar zimmasiga juda katta yuk bag’ishlagan va ular olimning badiiy adabiyotni baholashdagi asosiy mezonlarini belgilab beradi. Ularni olim tadqiqotlarining kalit so’zlari deb baholasak bo’ladi.

“O’zbek tilining izohli lug’ati”da fazl so’zi “ijobiy xislat, fazilat, afzallik, ustunlik”, fasohat so’zi “chiroyli va yoqimli so’zlash qobiliyati, nutqning aniq va ravonligi”, fasih so’zi “ravshan, ravon, aniq, yoqimli; adabiy”(4,333), zakovat so’zi “aqllilik, ziyraklik, donolik”, zarofat so’zi “hozirjavoblik, qochirim gaplarga ustalik” deya izohlanadi. Ko’rinadiki, bu so’zlarning izohi nafaqat Erkin Vohidov ijodidagi, balki har bir ijodkor uchun muhim bo’lgan xislatlarni belgilab beradi. Shu sababli olim ijodining ko’plab o’rinlarida bu so’zlar qizil chiziq bo’lib o’tadi va ajralib turadi.

Ibrohim G’afurov o’zbek tanqidchiligida hassos munaqqid sifatida ajralib turadi. “Ibrohim G’afurov badiiy asarni tahlil etish bilan kifoyalaniq qolmay, ko’pincha shu tahlil etayotgan asari ta’sirida tug’ilgan his va kechinmalari bilan o’rtoqlashadigan va shular orqali fikr yuritayotgan asar yoxud yozuvchi ijodi haqida tasavvur berishga

intiladigan, badiiy asarni o'rganish, talqin etish, bahonasida aksar holarda o'zining ruhiy olamini namoyon etuvchi o'ziga xos uslubli munaqqidlardan biridir. Boshqacha aytganda bunday adabiyotchilar ilmda nafosatga boy tanqidchi deb ataladi”(5,196). Tanqidchining bunday o'ziga xosligi avvalo uning asarlari tilida o'z ifodasini topadi. Munaqqid tahlil qilinayotgan asar va uning muallifi ruhiyatini ochib berishda va asar ta'sirida o'z qalbida kechayotgan jarayonlarni yoritishda ko'plab badiiy tasviriy vositalar, shakliy va ma'naviy badiiy san'atlardan foydalanadi. Masalan, munaqqid asarlarining ko'plab o'rinlarida va ularning nomlanishida alliteratsiya uchraydi. “Hayo – xaloskor” asariga kiritilgan “Kolumbiyalik koshif”, “Navoiy va Nilufar”, “Boshi tosh xalq”, “Mangu latofat” asariga kiritilgan “Fazl.Fasohat.Zakovat”, “Matonat va muhabbat”, “Parivashlar majlisi” asariga kiritilgan “Qalbning qit'alarida”, “To'lg'oq tutganda”, “Sartir satrlari” maqolalarning nomlanishida sarlavha maqolaning mazmunini ochib berishi bilan birga so'zdagi tovushlarning garmoniyasiga ham urg'u berilgan.

“Kutilmagan va tutilmagan xayol”(2,139). “O'lmas shoirona mag'izdor, jussador, ko'krakdor, noyob jarangdor nomlar”(1,542), “soddalikda bu she'rlarni bug'doy doniga, yoki ikki tovaning o'rtasida pishgan cho'ponlarning ko'moch noniga o'xshatish mumkin”(1,437) kabi jummlarning ohangdorligini esa ichki qofiya ta'minlaydi.

“Lekin bu randalanmagan nafosat va, u chamamda Halima she'riyatining o'ziga xosligini belgilaydi”(2,138). “Lekin qahramon qalbidagi chiroqni adib yoqadi. Agar adibning o'z yuragi chiroq bilanyorimagan bo'lsa, u yaratadigan qahramon chiroqni qayerdan olsin?!”(2,28), “Bir dono odam olovdan keyin an'anaga ko'ra kul qoladi degan ekan. Lekin adabiyotga kul qoldirmaydigan, kulga aylanmaydigan cho'g'lar kerak”(2,38) kabi jummlaridagi metaforalar asarlar badiiyatini ta'minlash bilan birga tilimizga yangi ifoda usullarini olib kiradi.

“...qamchi sadosiday satrlar bir qo'l bilan qarsak chalishga uringan kishining

tuyg'ularini ifodalayotganga o'xshaydi"(2,138). "Qushning erkagi, she'ning fikrsizi yasanchoq bo'ladi"(2,146). Nazir Safarovning "Navro'z" asarida ba'zi o'rinlarda voqealar bir-biriga mingashib ketganligini "adib ikki qozonga sig'adigan zo'r masalliqni o'rinsiz ravishda bir qozonga tashlaydi"(2,82) deya tilimizda hech uchramagan o'xshatishlar keltiradi.

"Lekin Halima qahramonining nigohi, dunyoqarashi... hayot uchun kurashda yaralangan, yaralanib tolgan, qarashlariga huzn, kadar cho'kkan kishiniki kabi rahnali emas"(2,135) kabi jumalalarda esa asardagi munaqqidning o'ziga xos tilini hozirda mumtoz adabiyot sahifalaridagina saqlanib qolgan huzn, kadar kabi so'zlar belgilab beradi.

Munaqqid I.G'afurovning asarlari tilida yana shunday o'ziga xoslik mavjudki, buni ta'kidlamaslik mumkin emas. Ba'zan tanqidchi jumladagi mazmunning salmoqdorligi, yoki tuyg'uning kuchiga qarab jumla juda uzun tuziladi. Masalan, urush yillarining o'ta og'ir, mashaqqatli va fojeali hayoti tasvirlangan "Lekin odamkushlik, birodarkushlik urushining butun qo'rqinch, xarosonliklari sokin, jim-jit otameros o'zbek mahallasi, pastak loy devorlar, pastak loy tomlar, hovlilar ichida yana hovlilar boshlanadigan, hovlilarida o'riklar gullab, pishib, tagi bilan bitta bo'lib to'kilib yotadigan, ariqchalar aylanib o'tadigan va ariqchalarning bo'ylarini muattar gulsafsarlar va binafshalarning nafarmon ranglari, iris iforlari tutib yotadigan go'shalarga ham kirib kelar, har kuni dam u hovli, dam bu bog', dam u boloxona ichidan mungranib yig'lagan ovozlari, faryod saslari kelib turardi" jumlasida ellik yettita so'z qo'llangan. Bunday holat odatdagi nutqda jumlaning grammatik qurilishiga putur yetkazishi, tinglovchi nutqdagi mazmunini anglab yetolmasligiga sabab bo'lishi mumkin. Ammo I. G'afurovning bu jumlasida bir nafasda she'riday o'qiladi va uning mazmuni ham yorqin anglashiladi. Ongimizga, qalbimizga munгли qo'shiqday quyiladi.

Badiiy adabiyot tuyg'ulari tuyumi, so'z tuyg'usidir. Demak, badiiy adabiyotga xos

barcha o'rinlarda, hatto uning tahlilida ham poetik so'z va uning qo'llanishi muhokama va tahlilga tortilishi o'rinlidir.

Adabiyotlar:

1. Ibrohim G'afurov. Tanlangan asarlar. "Sharq" nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi. –T.: 2017

2. Ibrohim G'afurov. Yam-yashil daraxt. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –T.: 1976

3. Chingiz Aytmatov. Qiyomat. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. –T.: 1989.

4. O'zbek tilining izohli lug'ati. "O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. –T.: 2008,

5. B.Nazarov, A.Rasulov, Sh.Ahmedova, Q.Qahramonov. O'zbek adabiy tanqidi tarixi. Tafakkur qanoti. –T.: 2012

6. Ахмедова Ш. Н. ПРОГРЕСС ПОРТРЕТОПИСАНИЯ В ПЕРИОД ГЛОБАЛИЗАЦИИ В ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИИ //Россия-Узбекистан. Международные образовательные и социально-культурные технологии: векторы развития. – 2019. – С. 12-14.

7. Ахмедова Ш. Н. Юмористическое мастерство Саида Ахмада. Ташкент. – 1994.

8. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.

9. Ахмедова Ш. Н., Норова Н. О РАЗВИТИИ И ХАРАКТЕРЕ ЖАНРА РЕЦЕНЗИИ //International scientific journal. – 2016. – С. 37.

10. Амонова З. К. ПОЭЗИЯ СЕРГЕЯ ЕСЕНИНА В ШКОЛАХ С УЗБЕКСКИМ ЯЗЫКОМ ОБУЧЕНИЯ (Посвящается 120-летию поэта) //Редакционная коллегия. – 2014.

11. Davronova S. EASTERN AND WESTERN LITERARY TRADITION IN THE MODERN UZBEK NOVELS //World science. – 2016. – Т. 4. – №. 5 (9).

12. Rajabova M. B., Akhrorova Z. R. UVAYS QARANIY IN THE INTERPRETATION OF FARIDUDDIN ATTAR AND ALISHER NAVOI //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 2. – С. 219-223.

13. Rajabova M. B. EXPRESSION OF IMAGES RELATED TO NATIONAL TRADITIONS IN A. NAVOI'S WORK //Scientific reports of Bukhara State University. – 2020. – Т. 4. – №. 5. – С. 141-146.

14. Safarova H. "HAPPINESS IS THE FLAG LANGUAGE, FROM HAPPINESS I AM ALSO A TONGUE!"... ON THE EXAMPLE OF THE WORK OF THE POET SAMANDAR VOHIDOV //Конференции. – 2020.

15. EŞONKULOV H. ALİ ŞİİR NEVAÎ GAZALLERİNDEKİ SIR TUTMAKLA İLGİLİ DÜŞÜNCELERİN İRFANİ ANLAMLARI HUSUSUNDA //Electronic Turkish Studies. – 2018. – T. 13. – №. 28.

16. EŞONKULOV H. ALI ŞİİR NEVAÎ'NİN MAHBUBU'L-KULUB ESERİ VE ŞAİRİN AŞIKÂNE GAZELLERİNDE ÂŞK KONUSU //Electronic Turkish Studies. – 2018. – T. 13. – №. 20.

17. Kadirova N. S. CRITICAL STYLE AND GENRE DIVERSITY //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 428-433.

18. Qodirova N. S. SOME CHARACTERISTIC FEATURES, SKILLS AND STYLE OF THE LITERARY CRITIC //Web of Scholar. – 2018. – T. 5. – №. 2. – С. 32-35

19. Sharipova L. F. Literary riddles //Theoretical & Applied Science. – 2018. – №. 10. – С. 342-346.

20. Муродов Г., Саидова Р. Интерпретация терминов и их анализ //Молодой ученый. – 2017. – №. 13. – С. 703-705.